

MAHMUDHO‘JA BEHBUDIYNING MILLIY MA’NAVIYATIMIZNI
YUKSALTIRISHDA TUTGAN O‘RNIРОЛЬ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ В ПОДЪЕМЕ НАШЕЙ
НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИTHE ROLE OF MAHMUDHOJA BEHBUDI IN RAISING OUR NATIONAL
SPIRITUALITY*Maksudova Shahlo,**O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi**+998935400750**Максудова Шахло**студентка Международной исламской академии Узбекистана**+998935400750**Maksudova Shahlo**student of International islamic academy of Uzbekistan**+998935400750*

Annotatsiya. Maqolada Turkistonda jadidchilikning yirik vakillari haqida keltirilgan. “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” maktablari va ularga Turkistonlik xalqning qarashlari haqida batafsil yoritilgan. Hozirgi zamon talabiga javob beruvchi maqolalari va ularning mazmuni haqida yetarlicha ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье упоминаются основные представители джадидизма в Туркестане. Подробно описаны школы «Усули Джадид» и «Усули Савтия» и взгляды туркестанцев на них. Дана достаточная информация о статьях и их содержании, отвечающая требованиям настоящего времени.

Annotation. The article mentions the major representatives of Jadidism in Turkestan. "Usuli Jadid" and "Usuli Savtiya" schools and views of the Turkestan people about them are described in detail. Sufficient information is given about the articles and their content that meet the requirements of the present time.

Kalit so‘zlar: Ma’rifatparvar, jadid, millat, taraqqiyparvar, hokimiyat, jurnal, taraqqiyot, jamiyat, g‘oya, adabiyot.

Ключевые слова: Просвещенное, современное, нация, прогрессивное, власть, журнал, развитие, общество, идея, литература.

Key words: Enlightened, modern, nation, progressive, power, magazine, development, society, idea, literature.

KIRISH

Turkiston jadidlari o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzarb muammolarini chuqur tahlil etib, ularni tanqid ostiga olganlar. Ular yevropacha idora o‘lkada joriy etish ma’qulligi haqida fikr-mulohazalar bildirishganlar. “Jadidchilik”

iborasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Jadidchilik davlat boshqaruvini isloh etish va millat ma'rifatini rivojlantirish orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan va aniq amaliy tadbirlar o'tkazish taklif etilgan g'oyalar tizimidir.

Jadidlar dunyoning ilg'or davlatlaridan ko'p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo'lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy – zo'rlik yo'li bilan emas, balki tadrijiy – ma'rifiy yo'l bilan ijobiy tomonga o'zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi, kurash usuli edi.

Turkistonda jadidchilikning yirik vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Asadulloxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Fayzullo Xo'jayev, Abdulvohid Burxonov, Mirkomil Burhonov, Xudoybergan Divanov va boshqalar hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Turkiston o'lkasi jadidchiligining asoschilaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy quyidagilarni yozgan edi: “Turkiston musulmonlariga lozimki, avvalo, qadim va jadid nizo nafzini qo'yib, ittifoq istasak. Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar bilan qo'shilgan holda Turkiston hukmi (xukumati)ni ta'sis etsak, o'zimizning majlis-mashvarat (parlament)imiz bo'lsin desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o'z zakun (qonun) va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar. Turkiston yahudiylari, nasroniylari va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e'tiborga olaturg'on qonunlar tuzilsin... O'zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo'lsun. U milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va maishat tarzini o'zimiz tayin qilurmiz”¹.

Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi. Turkistonda “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni tashkil qilib, birinchi bo'lib zamonaviy maktab g'oyasini ilgari surdilar. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloqlga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar. Rossiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining shon-u shavkatini himoya qildilar, inqilob yillarida bayrog'ini baland ko'tardilar.

Shu bilan bir vaqtda mahaliy ruhoniylar ham bu usuldagi maktablarni yoqtirishmas, obro'lari tushib ketishidan qo'rqib, ularni kofirlar maktabi deb xalq orasida ig'vo tarqatar edilar. Shuning uchun usuli jadid maktablari uzoq umr ko'ra

¹ Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir. Vatanparvar gazetasining 2019-yil 13-yanvardagi № 2-soni. – B.18.

olmasdi. Millatparvar jadidlar Munavvarqori Abdurashidxonov, Ibrat, Abduqodir Shakuriy kabilar qatori Behbudiy ham o'z xalqining, boshqa xalqlardan kam bo'lmagan holda, bilim olishga haqli ma'rifat orqali turmushini yuksaltirish, o'z tafakkuri ila dunyo ilmiga hissa qo'shishga qodir ekanligi haqida qayg'urdi.

Ulug' olim o'z fikrini uch yuzdan ortiq ilmiy maqolalarida ochiq oydin ifodaladi. Bu bilan u hozirgi zamon jurnalistikasi rivojiga juda katta hissa qo'shdi. Uning maqolalari "Oyna" jurnali "Samarqand" gazetalarida muntazam chop etilardi. Behbudiyning "Yoshlarga murojaat", "Ikki emas to'rt til lozim", "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?", "Ehtiyoji millat", "Eshitar quloq anglar aql bor", "Bizni kemiruvchi illatlar" kabi maqolalari o'z davridagina emas, bugungi kun talablari uchun ham dolzarbligui bilan ahamiyatlidir. Bugun mamlakat iqtisodi va ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilishni ko'ngliga tukkan har bir yosh aniq fanlarni mukammal bilish bilan birga, jahon tillari hisoblangan tillardan birini ham bilishi zarur. Behbudiy faoliyatini o'rganish barobarida uning "Ikki emas, til lozim" maqolasini alohida e'tibor bilan o'rganish kerak. Yozuvchi maqolada millatimiz yoshlari o'z ona tillarni bilishi lozimligini uqtirar ekan, O'sha davridayoq millatimiz ilm ahli turkiy va forsiyni to'liq bilganlari ma'lum bo'ldi. Muallif "Bizga saodatdirki va forsiyni taxlilsiz bilurmiz. Har turkiyni forsiy va har forsiyni turkiy bilmog'i lozimdir. Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy asarlaridan qanday lazzat olsalar, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiyulardan shunday lazzat oladilar. Farang va rus tillarini bilmoq ularning donishmandlari yaratgan asarlari bilan yaqindan tanisha olar, Jul Vern, Tolstoy asarlarini tarjimonsiz tushunish lazzatidan bahramand bo'lishadi."... Turk tili targ'ibotiga to'xtalgan Behbudiy arab, yunon tillaridagi ko'plab ilmiy asarlar shu tilga tarjima qilinganini, bu turk tilini bilish ilm olamini bilishga yo'l ekanligini uqtiradi. O'sha davr taqozosi bilan arab, rus, fransuz tillari jahon tillari bo'lganini hisobga olsak, muallif maqolada juda ham zarur fikrni olg'a surgan.

Hozirgi kunda zamon talabiga javob beruvchi yoshlarimiz, ona tilidan tashqari, rus va xorijiy tillardan (ingliz, nemis, xitoy) birini bilsagina o'z yurti iqtisodi va rivojiga xissa qo'shishi mumkinligini anglashi lozimligini uqtirishi biz o'qituvchilar uchun juda muhimdir Demak, ustoz Behbudiyning teran fikrlari bugungi kun uchun ham eng dolzarb mavzu ekanligi kunday ravshan.

"Boshqa millat boylari oqchalarini o'z millatlari ilmini oshirish uchun sarflaydilar, ammo biz Turkistonda bu ishlardin so'ylamoqqa hanuz navbat kelgani yo'q", deb kuyinadi muallif "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" maqolasida. Oradan shuncha yillar o'tdi. Zamonamizda bugun ulug' inson orzulari amalga oshmoqda.

Behbudiyning rang-barang mavzularda qalam tebratganini uning "Muhtaram yoshlarga murojaat" maqolasidagi quyidagi so'zlaridan ham bilib olishimiz mumkin: "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobiga tavassul va etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham

madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan makotibi ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot g'ayratlu yoshlarning harakoti maorifparvaronalari soyasida vujudga keldi. Shuning uchun har bir havoyijimizdan bo'lgan mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarimizni marja' tutib, alardan yordam so'raymiz (mollari yoki so'zlari ila millat foidasiga yordamlari tekkan ba'zi ulamo-u ag'niyomiz ham yoshlar qatoridadurlar)"².

Olimning maqolalarida dunyoviy ta'limni yo'lga qo'yish, ma'naviy yangilanishlar orqali milliy o'zlikni anglash, siyosiy mustaqillikka erishish, demokratik davlat yo'lidan borishga chorlaydi. Demokratik davlat qurishda esa, alloma beparvolik, loqaydlik va qoloqlikka qarshi kurashish lozimligini uqtiradi. Buni amalga oshirish uchun esa, jamiyatga taraqqiyparvar va bilimli yoshlarni tarbiyalash lozim deb hisoblab, ularni ilm-fan yuksak darajada rivojlangan demokratik Yevropa va Turkiya singari davlatlariga o'qitishga yuborish zarurligini e'tirof etadi. Turkiston taraqqiyot yo'lida faqat bir til emas, to'rt tildan foydalanish, shuningdek, fan-texnika yutuqlaridan bahramand bo'lishi muhimligini asoslab bergan. U o'z Vatanim kelajagini kuchli dunyoviy hokimiyat, mulkiy daxlsizlik, shaxs huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan, ma'naviyat yuksalgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un rivojlangan jamiyat bo'lishini orzu qildi.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilib olish va ishlab-chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lida yoshlar asosiy kuch

² Mahmudxo'ja Behbydiy. Tanlangan asarlar // To'plovchi: Qosimov B.-T.: "Ma'naviyat", 1999.-B.176.

bo'lganligini tushunib, ularning on-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y harakatlar qilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir. Vatanparvar gazetasining 2019-yil 13-yanvardagi № 2-soni. – B.18.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar //To'plovchi: Qosimov B.-T.: "Ma'naviyat", 1999.-B.176.
3. Shahlo, Maksudova. "Mahmudxo'ja behbudiy—turkiston jadidchilik harakati otasi." Научный Фокус 1.3 (2023): 288-291.
3. Shahlo, Maksudova. "Mahmudxo'ja behbudiyning ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati." (2023): 5-8.
4. Ibrohim N. Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari va uning ahamiyati //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 2. – С. 43-46.
5. Nig'matullayev I. O'zbekistondagi shia jamoalarini o'rganishda zamonaviy yondashuvlar //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 84-92.